

MAMLAKATIMIZDA TURIZM INDUSTRAYISINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Karimov Shahbozxo'ja Xamdamjon o'g'li,

Farg'ona davlat universiteti "Iqtisodiyot va servis"
kafedrası o'qituvchisi. karimovshahboz417@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda turizmning dunyo iqtisodiyotidagi o'rni mustahkamlanib, muhim makroiqtisodiy tarmoqlardan biri sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm industriyasining rivojlanish istiqbollari, zamonaviy tendensiyalar va sohada amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, turizmni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar, innovatsiyalar va infratuzilma yangilanishlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Turizm industriyasi, infratuzilma, «O'zbekiston-2030» mehmonxona, ichki turizm, klaster.

Kirish: O'zbekiston boy madaniy merosi, tarixiy yodgorliklari va betakror tabiati bilan sayyohlar uchun jozibador mamlakat hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakat turizm industriyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, bu soha milliy iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Turizm infratuzilmasini takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali bu sohani yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston turizm industriyasining rivojlanish tendensiyalari statistik va qiyosiy tahlil orqali o'rganilib, xalqaro tajribalar bilan taqqoslandi. Shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan turizm siyosati bo'yicha chuqur tahliliy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston turizm industriyasining hozirgi holatini baholash va uning istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdir.

Asosiy qism: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, turizmni rivojlantirishga ham Davlat tomonidan katta ahamiyat berilmoqda. Turizm sohasi mamlakat iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etib, xalqaro miqyosda O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini yuksaltirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Turizm sohasini tashkil etuvchi asosiy infratuzilmalar: joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish xizmati va transport xizmati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasini rivojlantirishda transport xizmatlari asosiy o'rin egallaydi. Transport xizmatlarining rivojlanishi va takomillashib borishi sayyohlar uchun qulayliklar yaratib, ularning sayohatlarini yengillashtiradi. Bu orqali turizmning mamlakatda taraqqiy etishiga erishish mumkin. Shu boisdan O'zbekistonda aviatsiya, temir yo'l va avtomobil transporti xizmatlarini takomillashtirish choralari ko'rilmogda. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida 2023-yil 27-iyulda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning «Turizm sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

Xususan, quyidagi choralari ko'rildi:

2023-yil 1-yanvardan boshlab 2026-yil 31-dekabrgacha foydalanishga topshirilgan taqdirda, balandligi kamida besh qavatli yangi mehmonxonani qurish (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) va jihozlash uchun investorlar xarajatlarining bir qismini qoplanadi. Shu bilan birga, kamida 60 ta xonali 3 yulduzli toifasini tasdiqlagan mehmonxonalarga har bir xona uchun 40 million so'm, 4 yulduzli va 5 yulduzli toifadagi kamida 120 xonali mehmonxonalarga har bir xona uchun 65 million so'm to'lanadi.

Bundan tashqari, ushbu toifadagi mehmonxonalar mavjud bo'lmagan hududdagi birinchi ikkita 4/5 yulduzli mehmonxonalar va birinchi uchta 3 yulduzli mehmonxonalar uchun subsidiyalari miqdori 50 foizga oshadi.

Turizm sohasining rivojlanishida malakali kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan:

- Talabalarni o'qitish uchun «franchayzing» asosida xalqaro miqyosda tan olingan ta'lim dasturlarini joriy etish.

- Turoperatorlik xizmatlari, gidlar, mehmonxona va transport xizmatlari kabi turizm sohalaridagi amaliyot bilan bir qatorda o'quv jarayonini o'tkazish uchun amaliy asoslarni yaratish.

-Turistik mavsum oylarida amaliyot o'tkazish bilan «blok-modul» tizimi asosida Dual ta'lim shaklida o'quv jarayonini tashkil etish.

Bundan tashqari kasbiy standartlar va malaka talablarini ishlab chiqish, ushbu jarayonga jalb qilingan mutaxassislarining ish haqi xarajatlari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari bilan qoplanadi.

O'zbekistonda ekologik turizmning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda tog', cho'l va o'rmon zonalarida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, Orolbo'yi mintaqasida ekoturizm markazlari tashkil etilib, Orol dengizi ekologik inqirozi natijasida paydo bo'lgan noyob tabiiy landshaftlar xorijiy sayyohlar uchun jozibador qilib targ'ib etilmoqda.

Tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida ekomehmonxonalar va ekologik yo'nalishdagi sayyohlik marshrutlari tashkil etilmoqda. Xususan, Chimgan, Zaamin, Hisor va Nurata tog'larida ekologik turizm loyihalari amalga oshirilmoqda.

2025-yilgacha bo'lgan rejaga ko'ra:

- Yangi ekoturizm maskanlari tashkil etilib, ekologik mehmonxonalar soni oshiriladi.
- Ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha qonunchilik bazasi mustahkamlanadi.
- Mahalliy aholiga ekoturizm bo'yicha o'quv kurslari tashkil etilib, xizmat ko'rsatish darajasi oshiriladi.

- Xalqaro ekoturizm tashkilotlari bilan hamkorlik kuchaytiriladi va O'zbekiston ekologik turizm bo'yicha xalqaro ko'rgazmalarda faol ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) tomonidan 2024-yilning III-choragida (iyul-sentyabr) O'zbekistonda turizm sohasida qayd etilgan natijalar tahlil qilindi. Sayyohlar oqimi o'tgan davrga nisbatan oshgani kuzatildi.

«O'zbekiston 2030» strategiyasida 2030-yilga qadar xorijiy sayyohlar sonini 15 million nafarga, ichki sayyohlar sonini 25 million nafarga, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazishga alohida e'tibor berilgan. Turizmni rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlar natijasida O'zbekistonda ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. 2024-yilning III choragida

O'zbekistonga kelgan xorijlik sayyohlar soni 2,2 million nafarga yetdi. Bu joriy yilning II choragiga qaraganda 1,1 barobar ko'p, ya'ni 2024-yilning II choragida xorijlik sayyohlar soni 2 million nafarni tashkil qilgandi. 2024-yilning III choragida O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlarning 90,3 foizi MDH davlatlariga to'g'ri keladi (joriy yilning II choragida ushbu ko'rsatkich 90,1 foizni tashkil qilgan). Shuningdek, tashrif buyurgan sayyohlarning safar maqsadlari bo'yicha tahlil qilinganda, qarindoshlarni yo'qlash 79 foiz (joriy yilning II choragida 80 foiz), bo'sh vaqt va dam olish 15,5% (joriy yilning II choragida 17,9 foiz), tijorat 2,2% (joriy yilning II choragida 1,9 foiz) va xizmat yuzasidan 1,9 foiz (joriy yilning II choragida 2,2 foiz) ekanligi aniqlandi.

O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy fuqarolarning asosiy yosh toifasi 31-55 yoshni tashkil etib, umumiy sayyohlar sonining o'rtacha 50 foizini tashkil qiladi.

Turistlarni O'zbekistonga jalb qilish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar.

Yangi mehmonxona/xostellar 2024-yilning III choragida sayyohlarga turistik xizmatlari ko'rsatish maqsadida 271 ta turoperator va turagentlar (joriy yilning II choragida 193 ta), joylashtirish vositalari bo'yicha 29 ta mehmonxonalar (joriy yilning II-choragida 40 ta) va 80 ta xostellar (joriy yilning II choragida 51 ta) yaratildi.

Transport infratuzilmasini takomillashtirish uchun respublika bo'ylab sayyohlar uchun maxsus turistik avtobus yo'nalishlari joriy qilinmoqda. Shuningdek, 2024-yilda Samarqand va Buxoroni bog'laydigan yuqori tezlikdagi temiryo'l loyihasi amalga oshirilmoqda, bu esa sayohat vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.

Forum tadbirlari Uzbekistan Airways, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi Milliy PR Markazi va o'zbek turizm kompaniyalari bilan birgalikda Malayziya va Indoneziyada (2024 y., aprel), Rossiya Federatsiyasida (sentyabr), Koreya va Hindistonda (oktyabr) oylarida bo'lib o'tgan xalqaro Road Show tadbirlarida ishtirok etdi. Forumning maqsadi O'zbekistonning sayyohlik salohiyati va madaniy merosini targ'ib qilish, shuningdek, mamlakatlar sayyohlik kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdan iborat edi.

Xorijliklar e'tirofi CNN Travel O'zbekistonni 2024-yilda tashrif buyurish tavsiya etiladigan 24 davlat ro'yxatiga kiritdi. Shuningdek, ro'yxatda Grenlandiya, Texas Hill Country, Florida shtatidagi chuchuk suvli buloqlar, Marokash, Merida, Meksika, Singapur qirg'oq bo'yi orollari, Galisiya, Ispaniya va boshqa joylar ham bor.

Ma'lumot uchun, 2018-yilda dunyodagi 80 ta mamlakat fuqarolariga O'zbekistonga kelish uchun vizasiz tartibdan foydalanishni joriy qilinishi xorijiy sayyohlar sonini sezilarli darajada oshishdi (2018-yil- 5,3 million nafar va 2019-yil 6,7 million nafar).

Shuningdek, O'zbekiston Henley & Partners konsalting kompaniyasining jahon pasportlari reytingida 80-o'rinni egalladi. O'zbekiston fuqarolari vizasiz kirishi mumkin bo'lgan davlatlar soni 31 ta, kirib kelganda viza olish kerak bo'lgan davlatlar soni 28 ta va elektron viza olish mumkin bo'lgan davlatlar soni 18 tani tashkil qiladi.

O'zbekistonning jahon miqyosida turistik jozibadorligini oshirish maqsadida quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

Viza imkoniyatlari 2025-yilga qadar xorijiy mamlakat fuqarolari O'zbekistonga kelishi uchun vizasiz tartibdan foydalanish imkoniyatini yanada ko'paytirish, ya'ni amaldagi 90 ta mamlakatlar sonini 120 taga yetkazish, xorijiy sayyohlar sonini 20 foizgacha oshirish imkonini beradi;

Yoshlarni ko'proq jalb qilish Yoshlar auditoriyasini (19-30 yosh toifasi) jalb qilish maqsadida inflyuenserlardan foydalangan holda Instagram va Facebookda aksiyalarni joriy qilish (kutilayotgan qamrov soni yilda 1 million foydalanuvchigacha); birinchi

Infratuzilmaga e'tibor Infratuzilmani yaxshilash, ya'ni ekomehmonxonalarga e'tibor qaratgan holda mashhur sayyohlik joylarida 100 ta yangi mehmonxonalar qurish (kutilayotgan turar joylar sonining ko'payishi 15000 tacha);

Ichki turizm - Ichki turizmni rivojlantirish, ya'ni 2025-yilda mahalliy sayyohlar sonini 40 foizga yetkazishni maqsadida, yosh bolali oilalar uchun ekskursiyalar va mehmonxonalarga chegirmalar taqdim etuvchi «Oilaviy ta'til» dasturini joriy etish;

Turizm klasterlarini ko'paytirish hududlarda turizm klasterlarini (masalan, Buxoroda madaniy klaster va Toshkent viloyatida ekoklaster) yaratish, natijada 2025-yilda ushbu zonalarida mahalliy sayyohlar sonini 30 foizgacha oshirish.

Turizm klasteri joylashtirish joylari, mehmonxonalar, restoranlar, kafelar, muzeylar, dam olish markazlari rahbarlari, turizm operatorlari, esdalik sovg'alari ishlab chiqaruvchilar, gidlar, o'qituvchilar, talabalar, frilanserlar, shuningdek, turizm bilan bog'liq boshqa shaxslar va tashkilotlarni birlashtiradi. Bundan tashqari, turizm klasterlari, ekologik turizmni rivojlantirish va transport infratuzilmasini takomillashtirish orqali O'zbekiston turistik jozibadorligini oshirishga harakat qilmoqda. Bu esa mamlakatning xalqaro sayyohlik xaritasida o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston o'zining qadimiy shahar va tabiiy go'zalliklari bilan sayyohlar e'tiborini tortmoqda.

Jumladan. Samarqand dunyoning eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi, Amir Temur maqbarasi kabi tarixiy yodgorliklari bilan mashhur. Bu shahar Buyuk Ipak yo'lining muhim markazlaridan biri bo'lgan va bugungi kunda sayyohlarni jalb etishda davom etmoqda.

Buxoro shahri o'zining me'moriy yodgorliklari, jumladan, Poi-Kalon majmuasi, Ark qal'asi, Labi Hovuz ansambli va boshqa tarixiy inshootlari bilan mashhur. Bu shahar O'zbekistondagi eng qadimiy islomiy ilm markazlaridan biri sifatida ham e'tirof etiladi.

Xiva – O‘zbekistonning eng yaxshi saqlangan tarixiy shaharlaridan biri bo‘lib, Ichan-Qal’a majmuasi YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bu yerda qadimiy saroylar, madrasalar va minoralar sayyohlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi.

O‘zbekiston poytaxti Toshkent – mamlakatning madaniy va iqtisodiy markazi bo‘lib, zamonaviy infratuzilma va tarixiy yodgorliklarning uyg‘unligi bilan sayyohlarni jalb etadi. Bu yerda Hazrati Imom majmuasi, Mustaqillik maydoni, Chorsu bozori kabi mashhur maskanlar mavjud.

Farg‘ona vodiysi o‘zining hunarmandchilik an‘analari, ipakchilik, kulolchilik va boshqa xalq amaliy san‘at turlari bilan mashhur. Marg‘ilon, Rishton va Qo‘qon kabi shaharlarda milliy madaniyat bilan tanishish mumkin.

Termiz shahri o‘zining qadimiy buddistik yodgorliklari va arxeologik qazilmalar bilan mashhur. Bu yerda Fayoztepa va Kara-Tepa kabi tarixiy obidalar joylashgan.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun samarali marketing va targ‘ibot strategiyalari muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, raqamli texnologiyalar va internet marketingi turizmni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat - Facebook, Instagram, TikTok va YouTube kabi platformalarda professional kontent yaratish, sayyohlar uchun qiziqarli vlog va fotoreportajlar tayyorlash. Sayyohlik blogerlari va vlogerlar bilan hamkorlik – mashhur sayohatchilar va kontent yaratuvchilarni mamlakatga taklif qilish orqali global auditoriyaga chiqish. SEO optimizatsiyasi va onlayn reklama – sayyohlik veb-saytlarini qidiruv tizimlarida yuqori o‘ringa olib chiqish. Mobil ilovalar va virtual ekskursiyalar – sayyohlar uchun maxsus ilovalar ishlab chiqish va tarixiy joylarni virtual sayohatlar bilan targ‘ib qilish.

Xalqaro miqyosda O‘zbekistonni jozibali turistik manzil sifatida ilgari surish mamlakat turizm industriyasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro sayyohlik yarmarkalarida qatnashish – ITB Berlin, WTM London kabi yirik tadbirlarda mamlakat imkoniyatlarini taqdim etish va xorijiy turoperatorlar bilan aloqalarni mustahkamlash. Turoperatorlar va aviatashuvchilar bilan hamkorlik – xorijiy turoperatorlar bilan eksklyuziv turpaketlar ishlab chiqish va mamlakatga charter reyslarini yo‘lga qo‘yish. **O‘zbekistonning sayyohlik brendini yaratish** – mamlakat madaniyati, an‘analari, milliy oshxonasi va tarixiy yodgorliklarini dunyo miqyosida targ‘ib qilish uchun yagona brend strategiyasini ishlab chiqish. **Taniqli shaxslarni sayyohlik elchilari sifatida jalb qilish** – dunyo miqyosida mashhur shaxslar orqali O‘zbekistonning sayyohlik salohiyatini ommalashtirish.

Ichki turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti va mahalliy tadbirkorlik uchun katta ahamiyatga ega. Buning uchun ushbu choralar ko‘rilishi lozim: **Mahalliy sayyohlar uchun maxsus dasturlar** – O‘zbekiston fuqarolari uchun arzon turpaketlar, dam olish kunlari turlarini yo‘lga qo‘yish. **Madaniy festivallar va tadbirlarni ko‘paytirish** – har yili an‘anaviy festival va tadbirlarni tashkil qilish orqali mahalliy hamda xorijiy sayyohlar oqimini oshirish. **Ichki transport infratuzilmasini yaxshilash** – temir yo‘l, avtobus va havo transport xizmatlarini sayyohlar uchun qulay qilish. **Ta‘lim va xabardorlik dasturlari** – odamlarni mahalliy sayyohlik salohiyati haqida xabardor qilish va ularni mahalliy diqqatga sazovor joylarni ziyorat qilishga undash.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish turizmni rivojlantirish va targ‘ib qilishning ajralmas qismiga aylanmoqda. **Sun‘iy intellekt va AR/VR texnologiyalaridan foydalanish** – virtual sayohatlar orqali sayyohlar uchun oldindan tajriba yaratish. **Blokcheyn texnologiyasi orqali xavfsiz tranzaktsiyalarni ta‘minlash** – mehmonxona bron qilish va to‘lov tizimlarini ishonchli va qulay qilish. **Ekologik turizmni targ‘ib qilish** – yashil turizm, tabiiy sayyohlik maskanlarini himoya qilish va barqaror rivojlanishga e‘tibor qaratish. **Aqlli turizm dasturlarini joriy etish** – sun‘iy intellektga asoslangan interaktiv xizmatlar, aqlli gidlar va raqamli turistik xaritalar yaratish.

Bu strategiyalarni samarali amalga oshirish orqali O‘zbekiston turizm industriyasining xalqaro va mahalliy bozorda raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Turizm O'zbekiston iqtisodiyoti va madaniy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Mamlakatning boy madaniy merosi, tarixiy yodgorliklari va tabiiy go'zalliklarini inobatga olsak, turizm industriyasini yanada rivojlantirish ulkan salohiyatga ega. Samarali marketing strategiyalari, zamonaviy infratuzilma va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali O'zbekiston dunyodagi yetakchi turistik yo'nalishlardan biriga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, ichki turizmni qo'llab-quvvatlash va innovatsion yondashuvlardan foydalanish mamlakatda barqaror va raqobatbardosh turizm sohasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi, aholini turmush kechirish sharoitlarini yaxshilanishida, xalqaro maydonga chiqishi va unda munosib o'rin egallashida barcha sohalar bilan bir qatorda turizm sohasini ham o'rni salmoqlidir.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar o'z natijasini bermoqda. Xususan, xorijiy sayyohlar oqimi ortib, yangi mehmonxonalar, turistik maskanlar va infratuzilmalar barpo etilmoqda.

Shuningdek, turizmni keng targ'ib qilish va rivojlantirish maqsadida ommaviy axborot vositalarida yurtimizning turistik salohiyatini yorituvchi maxsus ko'rsatuvlar namoyish etilmoqda, subsidiyalar va boshqa rag'batlantirish vositalari joriy qilinmoqda. Xorijdagi elchilar va vatandoshlarimiz mamlakatimizning milliy qadriyatlarini targ'ib qilishda muhim rol o'ynashi zarur.

Turizmni yanada rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- Raqamli turizm xizmatlarini rivojlantirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish;
- Yangi turistik yo'nalishlar va klasterlarni shakllantirish;
- Ekologik turizmni keng targ'ib qilish va barqaror turizmni rivojlantirish;
- Xorijiy bozorlarda O'zbekistonning turizm brendini kuchaytirish.

Ushbu chora-tadbirlar mamlakatimiz turizm sohasini yanada rivojlantirib, uni xalqaro maydonda yetakchi turistik yo'nalishlardan biriga aylantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хомидов, К. (2023). O'zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligi oshirish yo'llari. *Economics and Innovative Technologies*, 11(3), 154-160.
2. Хомидов, Х. (2023). Худудларда туристик мажмуалар фаолиятини шакллантириш ва тизимли бошқариш асосида худудлар туристик салоҳиятидан самарали фойдаланиш масалалари. "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami, 412-415.
3. Хомидов, Қ.Қ.Ғ. (2023). Организационно-экономический механизм развития туристических комплексов. In *Новые технологии в учебном процессе и производстве* (pp. 370-372).
4. Хомидов, Қ. Қ. (2023). Инновационные преимущества использования информационных технологий в туристической деятельности. In *современные вопросы естествознания и экономики* (pp. 421-424).
5. Fazliddinova, G., & Homidov, K. (2023). Zamonaviy turizm sanoatini rivojlantirishda marketing jarayonlarining roli. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(12), 20-27.
6. Fozilova, P., & Homidov, K. (2023). O'zbekistonda ziyorat turizmi tarixi va uning turizm rivojlanishida tutgan o'rni. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(12), 31-38.
7. Abduxalilov, J., & Homidov, K. (2023). Turizm sohasining rivojlanishi va jahon iqtisodiyotidagi o'rni. *Development and innovations in science*, 2(12), 37-43.
8. Хомидов, Қ. Қ. (2024). Совершенствование институциональной базы системы государственного регулирования туристских комплексов. *World of Scientific news in Science*, 2(2), 262-269.